

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MAS’ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI

M.G.Tojiyeva

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali “Boshlang‘ich ta’lim
nazariyasi va metodikasi” magistri

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta’limning uzluksiz ta’lim tizimida tutgan muhim o‘rni va yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashdagi asosiy rolga yuksak baho berib, sobiq tuzum davrida boshlang‘ich ta’lim tizimida ham muayyan kamchiliklar mavjud bo‘lganligiga e’tiborni qaratadi. O‘quvchi shaxsini hurmat qilish tamoyilini aks ettiruvchi boshlang‘ich ta’lim mazmunidir. Muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishi. Bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo‘lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash. O‘zbek tilida psixologik holatlarning emas, balki muayyan xatti-harakatlar yoki faoliyatning istiqbolli bo‘lishi ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, bosqichining maqsadi, faoliyat turlari, psixologik va fiziologik salomatliklar, muhim yutuqlar, imkoniyat, bilim yurtlari tizimi, istiqbol, ta’lim mazmuni.

СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА ОТВЕТСТВЕННОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Тожиева М.Г.

Самаркандский филиал Ташкентский
международный университет Кимё
Степень магистра по специальности
«Теория и методика начального образования»

Аннотация: Оценивая важную роль начального образования в системе непрерывного образования и его главную роль в воспитании молодого поколения как всесторонне развитой личности, отмечается, что в системе начального образования при прежнем режиме имелись определенные недостатки. . Именно содержание начального образования отражает принцип уважения личности учащегося. Формирование навыков общения и сотрудничества. Выявление скрытых возможностей в сознании и мышлении детей. В узбекском языке выражена перспектива определенного поведения или деятельности, а не психологические состояния.

Ключевые слова: начальное образование, цель этапа, виды деятельности, психологическое и физиологическое здоровье, важные достижения, возможности, система образовательных учреждений, перспектива, содержание образования.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshlang‘ich ta’limning uzluksiz ta’lim tizimida tutgan muhim o‘rni va yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashdagi asosiy roliga yuksak baho berib, sobiq tuzum davrida boshlang‘ich ta’lim tizimida ham muayyan kamchiliklar mavjud bo‘lganligiga e’tiborni qaratadi: “Ochiq aytishimiz kerak: bilimi sayoz muallimlar ham birinchi sinfda dars beraveradi. Boshlang‘ich ta’limga past nazar bilan qaralishining isboti shuki, sobiq SSSRda butun boshli pedagogika texnikumlari va bilim yurtlari tizimi tashkil etilib, ular asosan 1-4-sinf o‘quvchilarini o‘qitadigan muallimlar tayyorlar edi¹”.

Bizning nazarimizda eng muhim yutuqlar quyidagilardan iborat:

¹ O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun

1. Demokratik sharoitda erkin, mustaqil fikrga ega yosh avlodni tarbiyalashga imkon beruvchi boshlang'ich ta'lim Kontseptsiyasi² yaratildi.

2. Insonparvar va demokratik g'oyalar, shuningdek, o'quvchi shaxsini hurmat qilish tamoyilini aks ettiruvchi boshlang'ich ta'lim mazmuni asoslandi.

3. Boshlang'ich ta'lim tizimida o'qitilishi zarur deb belgilangan o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtiriluvchi majburiy bilimlar minimumini belgilovchi davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi.

Adabiyotlar sharhi. "Boshlang'ich ta'lim Konseptsiyasi"da belgilab berilganidek, uzluksiz ta'lim tizimi bu bosqichining maqsadi quyidagilardan iboratdir³:

- bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash;
- barcha faoliyat turlari bo'yicha bolalar tashabbusini uyg'otish va qo'llab-quvvatlash;
- muloqot va hamkorlik ko'nikmalarining shakllanishiga erishish;
- o'ziga ijobiy baho berish va o'ziga bo'lgan ishonchni qo'llab-quvvatlash;
- o'quv mustaqilligini shakllantirish o'qishga bo'lgan xohish va ko'nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlari darajasini kengaytirib borish.

Mazkur hujjatda bayon qilinishicha, boshlang'ich ta'limni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar bajarish lozim:

1. Bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish.

2. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni shakllantirish, qaysiki, bunday yangi imkoniyatlar o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi.

² Бошланғич таълим Концепцияси / Муаллифлар: Қ.А.Абдуллаева, Р.Ғ.Сафарова, М.О.Очилов, К.Н.Назаров, Н.У.Бикбаева, М.А.Зайнитдинова // Boshlang'ich ta'lim j. – Т.: 1998. 6-сон. – 12-18-б.

³ Бошланғич таълим Концепцияси / Муаллифлар: Қ.А.Абдуллаева, Р.Ғ.Сафарова, М.О.Очилов, К.Н.Назаров, Н.У.Бикбаева, М.А.Зайнитдинова // Boshlang'ich ta'lim j. – Т.: 1998. 6-сон. – 11-14-б.

3. O‘quvchilarda o‘rganishga hamda ta’lim jarayoniga nisbatan jonli qiziqishni shakllantirish.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, “Boshlang‘ich ta’lim Kontsepsiyasi”da vazifalarni yoritishda grammatik xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Bizning nazarimizda, ular quyidagilardir:

1) 2-bandda ko‘rsatilishicha, “kichik maktab yoshidagi bolalarda ta’limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni shakllantirish” zarur. Bu o‘rinda “imkoniyatlarni shakllantirish” tushunchasi noto‘g‘ri qo‘llanilgan. Binobarin, imkoniyatlar shakllantirilmaydi, balki olinayotgan ob’ektga nisbatan yaratiladi, yoki rivojlantiriladi. Kontsepsiyada ob’ekt sifatida boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar olinganligi bois ularning imkoniyatlari ochib berilishi yoki rivojlantirilishiga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq edi;

2) 3-bandda “jonli qiziqish” tushunchasi ham noto‘g‘ri qo‘llanilgan. Binobarin, qiziqish “jonli” bo‘lmaydi, balki xususiyatiga ko‘ra “kuchli” bo‘lishi mumkin.

Konsepsiyada, shuningdek, boshlang‘ich ta’limning mazmuni va asosiy vositalarini tanlashda quyidagi printsiplarga (“printsiplar” tushunchasi aynan keltirildi) asoslanishining maqsadga muvofiqligi aytiladi:

a) jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta’lim tamoyillariga;

b) ijtimoiy buyurtmaga;

c) o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarining istiqbollarga;

d) ijtimoiy so‘rovlarning ilmiy jihatdan ta’minlanganligiga;

e) ta’limning hammabopligiga;

f) ta’limning umumiylikiga;

g) boshlang‘ich ta’limning ochiqlikiga;

h) boshlang‘ich ta’limning ilmiylikiga;

i) boshlang‘ich ta’limning dunyoviylikiga;

j) boshlang‘ich ta’limning reprezentativlikiga;

- k) boshlang'ich ta'limning optimalligiga;
- l) boshlang'ich ta'limning milliyligiga;
- m) boshlang'ich ta'limning insonparvarligiga va umuminsoniyligiga;
- n) boshlang'ich ta'limning innovatsionligiga;
- o) boshlang'ich ta'lim shakllari va o'quv predmetlari orasidagi aloqalarning o'zaro ta'minlanganligiga.

Shu o'rinda mualliflarning fikrlariga to'la qo'shilish mumkin emasligini aytib o'tmoqchimiz. Ularning fikrlariga qo'shila olmaslikni quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

1) 5 (d)-13 (m) hamda 15 (o) bandlarda sanab o'tilgan holatlarning deyarli barchasi ta'lim tushunchalarini ifodalagan holda boshlang'ich ta'lim mazmuni va asosiy vositalari "jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta'lim tamoyillariga" (1 (a)-band) muvofiq tanlanishi aytib o'tiladi. Bizning fikrimizcha, bunday yondashilganda 5-15 bandlar qayta ifodalanmasligi yoki 1-band o'zgacha yoritilishi lozim edi;

2) "o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlarining istiqbolligiga" jumlasini ham noto'g'ri bayon etilgan. Binobarin, qiziqishlar istiqbolli bo'lmaydi, balki davomiy, turg'un bo'lishi mumkin. O'zbek tilida psixologik holatlarning emas, balki muayyan xatti-harakatlar yoki faoliyatning istiqbolli bo'lishi ifodalanadi. Masalan, "istiqbolli hamkorlik" tarzida. Chunki hamkorlik o'zaro kelishuvga muvofiq kelgusida ham davom etishi mumkin;

3) bizning nazarimizda "ijtimoiy so'rovlarning ilmiy jihatdan ta'minlanganligiga" degan jumlaning qo'llanilganligi o'rinli emas. Zero, bu o'rinda ilmiy-tadqiqotlar yoki ma'lum tekshirishlar xususida emas, balki boshlang'ich ta'limni yo'lga qo'yish to'g'risida so'z yuritilmoqda;

4) "boshlang'ich ta'limning milliylikiga" jumlasini "boshlang'ich ta'limning milliy g'oyalarga tayanganligiga" shaklida to'g'ri ifodalangan bo'lardi;

Tahlil va natijalar. Innovatsionlik ta'limning, shu jumladan, boshlang'ich ta'limning ichki xususiyati bo'lishi kerak. Ana shunga ko'ra bu holatni ustuvor g'oya sifatida qayd etishga nisbatan ehtiyoj yo'q.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida quyidagi shartlarga amal qilinishi ta'lim va tarbiya ishlarining samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarning har tomonlama kamolga yetishlari uchun zamin yaratadi:

- bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanishi hamda salomatliklarini ta'minlashga imkon beruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
- o'qituvchi va o'quvchilar jamoasini tashkil etishda o'zaro birdamlik va bir-birini tushunishning yangi usullarini topish;
- bolalarda o'qishni davom ettirish istagini saqlab qolish va ularda o'qish malakasi asoslarini shakllantirish (shaxsiy yutuq va cheklanishlarni mustaqil aniqlash, o'z imkoniyatlari chegaralarini boshqalar – kattalar va tengdoshlari yordamida kengaytirish);
- bola individualligining rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlash.

O.Musurmonova «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi» asarida «e'tiqod» haqida shunday fikr bildiradi: «Inson e'tiqod bilan tirik, e'tiqod bilan aziz va mukarramdir. E'tiqodi sof inson jamiyatning ma'naviy pokligi, barkamolligi uchun kurasha oladi. E'tiqodi mustahkam xalq o'zining diniy madaniyatiga, pok insoniy munosabatlar tizimiga ega bo'ladi. Har qanday farovon turmush tarzi ma'lum e'tiqodli, axloq normalari shakllangan jamiyatda qaror topadi, rivojlanadi⁴ Ta'limiy islohotlar davrida boshlang'ich ta'lim tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar mustaqil, o'z fikrini mustaqil ifodalay oladigan shaxsni shakllantirish yo'lida quyidagilarga erishish maqsadga muvofiqligini ifodalaydi⁵:

- bola va ota-onalarning ta'lim xizmatlaridan foydalanish borasidagi huquqlarini kengaytirish;

⁴ Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 190 б.

⁵ Образовательный процесс в начальной, основной и старшей школе. – М.: Сентябрь, 2001. – 240 с.

- bola shaxsiga bo'lgan hurmat; har bir o'quvchining ta'limiy manfaatlarini inobatga olish;

- ta'lim jarayonining yoshga muvofiq kelishi;
- to'laqonli psixologik va jismoniy rivojlanishni ta'minlash;
- bolalarning salomatliklarini muhofaza qilish.

Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini yanada takomillashtirish xorijiy mamlakatlarda bu sohada qo'lga kiritilgan tajribalarni o'rganish, ularni tahlil etish, shuningdek, milliy-mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olish asosida ilg'or tajribalardan respublika boshlang'ich ta'lim maktablarida maqsadga muvofiq foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. Ana shu maqsadda tadqiqot chog'ida Rossiya, AQSh, Yaponiya va Fransiya davlatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimi mazmuni bilan tanishildi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yetakchi xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribalarini o'rganish sohada bir qator ijobiy an'analarni mavjudligini ko'rsatdi. Germaniyadagi maktab⁶ tizimi boshlang'ich va o'rta ta'limni, ya'ni boshlang'ich maktablarni (1-4/6-sinflar) va birinchi va ikkinchi o'rta maktablarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisida turli qobiliyat darajasidagi o'quvchilar bir guruh bo'lib (Gesamtschule, 5–12-sinflar) yoki alohida (Hauptschule, 5–9-sinflar; Realschule, 5–10; Gymnasium, 5–12/13) o'qitiladi. Bundan tashqari, ko'plab federal shtatlarda maxsus maktab turlari mavjud. Boshqa ko'plab mamlakatlarning maktab tizimidan farqli o'laroq, ularning natijalaridan qat'i nazar barcha o'quvchilar bir xil davlat imtihonlaridan o'tadilar.

Germaniya mamlakatida maktab tizimi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tashqari kasb-hunar maktablarini ham o'z ichiga oladi. Germaniyada o'quvchilar uchun maktabda o'qish majburiy hisoblanadi. Jumladan:

⁶ www.schule.com

- boshlang'ich ta'limga nisbatan pedagogik yondoshuvning turli ko'rinishlari yuzaga keldi;

- o'qituvchilar davlat siyosati bilan qo'llab-quvvatlanayotgan ijodiy izlanish erkinligiga ega bo'ldilar, Rossiya, AQSh, Yaponiya va Frantsiya davlatlarida guberniya hamda shtatlar boshqaruvi asosida faoliyat yurituvchi xususiy maktablar tashkil etilmoqda;

- ota-onalarga maqul pedagogik tizimni tanlash imkoniyati berilmoqda, ota-onalarning onglilik darajasi o'smoqda;

- bolada ta'lim olishga bo'lgan rag'batni yuzaga keltirishda individul metod va vositalarni qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi tobora ko'proq e'tibor berilmoqda.

“... O'qishga o'quvchilarning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish, har bir yigit va qiz ongida tarbiyachilikning barcha imkoniyatlari ta'sirida o'qishga ijtimoiy va fuqarolik burchi deb qarashni shakllantirish⁷” uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, ta'limni rivojlantirish va uni jahon ta'limi standartlari darajasiga ko'tarish yo'lida olib borilayotgan bir sharoitda nihoyatda muhimdir.

“Mas'uliyat” tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda “javobgarlik”, “hisob bermoqlik” ma'nolarini anglatib, biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun javoblarlik kabi ma'nolarni bildiradi⁸. O'zbek tilida “mas'uliyat” so'zining muqobili sifatida “javobgarlik” tushunchasi bevosita qo'llaniladi. Masalan, davlat javobgarligi, huquqiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik va hokazo..

Ayrim manbalarda mazkur tushuncha mohiyatini yoritishda uning “jamiyatga munosabatni xarakterlovchi” axloqiy kategoriya hamda “shaxsni o'z-o'zini boshqarish shakli” ekanligiga ham alohida e'tibor berilgan. Jumladan, “Mas'uliyat shaxsning jamiyatga munosabatini xarakterlovchi, uning talablarini

⁷ Ўқувчиларда ўқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш (Оилада ва синфдан ташқари вақтларда) //Тузувчилар: М.Ш.Алламуратова, Г.Жўрабоева. – Т.: ЎзПФТИ, 1990. – 37 б.

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. Е – М. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 556- б.

bajarishni yuksak shaxsiy-axloqiy xislatlarini namoyon bo'lishi odob-axloqning etik ko'rinishidir. Shaxsning mas'uliyati uning butun borliqqa bo'lgan munosabati, har bir aniq vaziyatga bo'lgan alohida munosabati orqali namoyon bo'ladi⁹”.

“Oliy ta'lim (lug'at-ma'lumotnoma)”da bu tushuncha o'z xatti-harakatlarini tushunish va nazorat qilish sifatida talqin etilgan: “Mas'uliyat – shaxsni o'z-o'zini boshqarish shakli, o'zi tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlari va ularning oqibatiga sabab deb bilishda namoyon bo'ladi, shuningdek, atrof-muhitda va shaxsiy bo'lishdagi o'z qobiliyatini tushunish va nazorat qilishda aks etadi¹⁰”.

Xulosa va takliflar. Bizning nazarimizda, mas'uliyat shaxsning o'z-o'zini boshqarishi emas, aksincha, uning xatti-harakatlari hamda atrofdagilarga nisbatan munosabati bo'lib, individuallik va ijtimoiylik xususiyatini kasb etadi. Keltirilgan ta'rifda leksik xatoga ham yo'l qo'yilgan. Zero, o'zbek tilida “atrof-muhitda o'z qobiliyatini tushunish va nazorat qilish” hamda “shaxsiy bo'lishdagi o'z qobiliyatini tushunish va nazorat qilish” jumalari mavjud emas. Bu o'rinda mualliflarning “jamiyatda” yoki “ijtimoiy borliqda”, “ijtimoiy munosabatlar jarayonida”; “yakka tartibda” kabi tushunchalarni qo'llashlari maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalalilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi qonun

2. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қурамыз. Том 7.- Т.: Ўзбекистон, 1999.- 300 б.

⁹ Ўқувчиларда ўқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш (Оилада ва синфдан ташқари вақтларда) //Тузувчилар: М.Ш.Алламуратова, Г.Жўрабоева. – Т.: ЎзПФТИ, 1990. – 24 б.

¹⁰ Олий таълим (луғат-маълумотнома) /Акад. С.Ғуломовнинг умумий таҳрири остида. Тузувчилар: М.Х.Саидов, Л.В.Перегуров, З.Т.Тоҳиров. – Т.: Молия, нашриёти, 2003. – 456 б.

3. Ўқувчиларда ўқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш (Оилада ва синфдан ташқари вақтларда) //Тузувчилар: М.Ш.Алламуратова, Г.Жўрабоева. – Т.: ЎзПФТИ, 1990. – 37 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. Е – М. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 556- б.

5. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 190 б.

6. Образовательный процесс в начальной, основной и старшей школе. – М.: Сентябрь, 2001. – 240 с.

7. Бошланғич таълим Концепцияси / Муаллифлар: Қ.А.Абдуллаева, Р.Ғ.Сафарова, М.О.Очилов, К.Н.Назаров, Н.У.Бикбаева, М.А.Зайнитдинова // Boshlang‘ich ta’lim j. – Т.: 1998. 6-сон. – 12-18-б.

8. Бошланғич таълим Концепцияси / Муаллифлар: Қ.А.Абдуллаева, Р.Ғ.Сафарова, М.О.Очилов, К.Н.Назаров, Н.У.Бикбаева, М.А.Зайнитдинова // Boshlang‘ich ta’lim j. – Т.: 1998. 6-сон. – 11-14-б.